



**NAMANGAN VILOYATIDA TURIZM INFRATUZILMASINI
RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI**

Majidov Nodirbek Usmonjon o'g'li,

Namangan davlat universiteti magistranti,

e-mail:majidovnodirbek16@gmail.com

*Возможности для развития туристической инфраструктуры в
регионе Наманган.*

Мажидов.Н.У аспирант

Наманганского государственного университета

e-mail: majidovnodirbek16@gmail.com

Opportunities for developing tourism infrastructure in Namangan region

Majidov Nodirbek Usmonjon o'g'li,

graduate student, Namangan State University

e-mail: majidovnodirbek16@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada Namangan viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirishning hozirgi holati, mavjud muammolari va istiqbolli imkoniyatlari ko'p tomonlama tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi hududning tabiiy, tarixiy-madaniy hamda ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish orqali turizm infratuzilmasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini birmuncha aniq asoslab berishdan iborat. Maqolada transport va logistika tizimi, mehmonxona va joylashtirish infratuzilmasi, servis xizmatlari, raqamli turizm elementlari, investitsion muhit hamda kadrlar salohiyatining turizm rivojiga ta'siri statistik ma'lumotlar asosida ochib berilgan. Tadqiqot natijalari Namangan viloyatida turizm sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlash, hududiy turistik raqobatbardoshlikni oshirish va davlat hamda xususiy sektor hamkorligini kuchaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.



Kalit so'zlar: turizm infratuzilmasi, hududiy turizm, Namangan viloyati, transport-logistika, mehmonxona xo'jaligi, raqamli turizm, investitsion muhit.

Abstract. This scientific article provides a comprehensive analysis of the current state, existing problems and promising opportunities for the development of tourism infrastructure in the Namangan region. The main goal of the study is to provide a clear justification for the priority areas of tourism infrastructure development through the effective use of the natural, historical-cultural and socio-economic potential of the region. The article reveals the impact of the transport and logistics system, hotel and accommodation infrastructure, services, digital tourism elements, investment environment and human resources on tourism development based on statistical data. The results of the study allow us to develop practical recommendations aimed at ensuring the sustainable development of the tourism sector in the Namangan region, increasing regional tourism competitiveness and strengthening cooperation between the public and private sectors.

Keywords: tourism infrastructure, regional tourism, Namangan region, transport and logistics, hotel industry, digital tourism, investment environment.

Аннотация. Данная научная статья представляет собой всесторонний анализ текущего состояния, существующих проблем и перспективных возможностей развития туристической инфраструктуры в Наманганской области. Главная цель исследования - дать четкое обоснование приоритетных направлений развития туристической инфраструктуры за счет эффективного использования природного, историко-культурного и социально-экономического потенциала региона. В статье на основе статистических данных раскрывается влияние транспортно-логистической системы, гостиничной и бытовой инфраструктуры, услуг, элементов цифрового туризма, инвестиционного климата и человеческих ресурсов на развитие туризма. Результаты исследования позволяют разработать практические рекомендации, направленные на обеспечение устойчивого развития туристического сектора в Наманганской области, повышение



конкурентоспособности регионального туризма и укрепление сотрудничества между государственным и частным секторами.

Ключевые слова: *туристическая инфраструктура, региональный туризм, Наманганская область, транспорт и логистика, гостиничный бизнес, цифровой туризм, инвестиционный климат.*

Kirish.

Hozirgi globallashuv sharoitida turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi¹. O'zbekiston Respublikasida ham turizmni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo'lib, mazkur soha iqtisodiy o'sish, hududiy rivojlanish va bandlikni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi². Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, turizm xizmatlari ko'plab davlatlarda yalpi ichki mahsulot va bandlik darajasining muhim qismini tashkil etmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham mustaqillik yillarida turizm sohasiga strategik tarmoq sifatida alohida e'tibor qaratilib, uni hududiy rivojlanishning muhim omiliga aylantirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Namangan viloyati Farg'ona vodiysining sharqiy qismida joylashgan bo'lib, qulay iqlim sharoiti, tog'li va vodiy landshaftlari, tarixiy yodgorliklar, milliy hunarmandchilik va boy madaniy merosga ega². Mamlakatimiz rahbarining qarorlari va farmonlarida viloyatning turistik salohiyatidan samarali foydalanish, hududlarda zamonaviy turizm infratuzilmasini shakllantirish vazifalari alohida qayd etilgan³. Shu bilan birga, viloyatda turizm infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi mavjud resurslardan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Mazkur holat transport, joylashtirish, servis xizmatlari va axborot ta'minotidagi kamchiliklar bilan izohlanadi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Namangan viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish imkoniyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. **Adabiyotlar tahlili va metodlar**

Turizm infratuzilmasi tushunchasi ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turlicha talqin etilgan. Xorijiy ilmiy manbalarda turizm infratuzilmasi



transport vositalari, joylashtirish obyektlari, ovqatlanish, ko'ngilochar xizmatlar, axborot-kommunikatsiya tizimlari va xavfsizlik xizmatlari majmuasi sifatida qaraladi³. Jumladan, B.Ritchie va Crouch tadqiqotlarida infratuzilma turistik hudud raqobatbardoshligining asosiy omili sifatida baholanadi. Mahalliy olimlar tadqiqotlarida esa turizm infratuzilmasining hududiy rivojlanish, bandlik va ijtimoiy barqarorlikka ta'siri alohida ta'kidlanadi. O'zbekiston sharoitida turizm infratuzilmasini rivojlantirish davlat siyosati, normativ-huquqiy baza va investitsion muhit bilan chambarchas bog'liq ekanligi ko'rsatib berilgan. Namangan viloyatiga oid ilmiy ishlar asosan turistik resurslarni tavsiflash bilan cheklanib, infratuzilmani kompleks rivojlantirish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning quyidagi usullaridan foydalanildi: tizimli va mantiqiy tahlil, qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni umumlashtirish, mintaqaviy yondashuv hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlili.⁴ Shuningdek, Namangan viloyatida turizm obyektlari faoliyati bo'yicha ochiq manbalar asosida amaliy kuzatuvlar olib borildi. Ushbu metodlar tadqiqot maqsadiga erishish va ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Natijalar.

Tadqiqot natijalarini asoslash maqsadida Namangan viloyatida turizm infratuzilmasi rivojlanishiga oid statistik ma'lumotlar tahlil qilindi.

Jadval-1 2020- 2024-yillarda Namangan viloyatida turizm obyektlari sonining o'sishi [1]

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
Mehmonxonalar soni (dona)	42	47	55	63	71
Oilaviy mehmon uylari (dona)	18	26	34	41	52
Turistik marshrutlar (dona)	12	15	18	23	29



Jadval 1 ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2020-2024-yillar davomida Namangan viloyatida turizm infratuzilmasi obyektlari soni izchil va barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etgan. Xususan, mehmonxonalar soni 2020-yildagi 42 tadan 2024-yilga kelib 71 taga yetib, besh yil davomida qariyb 69 foizga oshgan. Mazkur holat hududda turistik xizmatlar bozoriga bo'lgan talabning ortib borayotgani hamda xususiy sektorning turizm sohasiga faol jalb etilayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, oilaviy mehmon uylari sonining o'sishi yanada yuqori sur'atlarda kechganini kuzatish mumkin. Agar 2020-yilda ularning soni 18 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 52 taga yetgan. Bu esa mahalliy aholi tomonidan turizm faoliyatiga jalb etilish darajasining oshgani, shuningdek, ichki va ekologik turizm yo'nalishlarining rivojlanayotganidan dalolat beradi. Turistik marshrutlar soni ham tahlil qilinadigan davrda 12 tadan 29 tagacha oshgan bo'lib, bu hududning turistik salohiyatidan samarali foydalanish, yangi yo'nalishlar va tarixiy-madaniy obyektlarning turizm aylanishiga kiritilayotganini anglatadi. Ayniqsa, 2022-2024-yillarda marshrutlar sonining tez o'sishi viloyatda turizmni hududiy rejalashtirish va diversifikatsiya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini ko'rsatadi. Umuman olganda, jadvalda keltirilgan statistik ma'lumotlar Namangan viloyatida turizm infratuzilmasi kompleks tarzda rivojlanayotganini, bu jarayon esa hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi. Ushbu tendensiya kelgusida turizm xizmatlari sifatini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda viloyatning investitsiyaviy jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Jadval-2 Namangan viloyatiga tashrif buyurgan sayyohlar soni dinamikasi (ming kishi hisobida)

Yillar	Ichki turistlar	Xorijiy turistlar	Jami
2020	420	18	438
2021	510	24	534
2022	680	37	717
2023	820	55	875



2024	960	74	1034
------	-----	----	------

2-jadval ma'lumotlari Namangan viloyatida 2020-2024-yillar davomida sayyohlar oqimining barqaror va izchil o'sib borganini ko'rsatadi. Xususan, jami sayyohlar soni 2020-yildagi 438 ming kishidan 2024-yilda 1 034 ming kishiga yetib, qariyb 2,4 barobar oshgan. Ushbu o'sish, avvalo, ichki turistlar oqimining faollashuvi bilan izohlanadi. Ichki turistlar soni mazkur davrda 420 ming kishidan 960 ming kishiga yetib, hududda ichki turizmni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini namoyon etadi. Xorijiy turistlar sonining 18 ming kishidan 74 ming kishiga yetib, 4 barobardan ortiq o'sishi esa Namangan viloyatining xalqaro turizm bozorida tanilib borayotganini ko'rsatadi. Bu holat viloyatda turizm infratuzilmasini takomillashtirish, transport-logistika tizimini rivojlantirish hamda servis xizmatlari sifatini oshirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Mazkur ijobiy dinamikaning shakllanishida hududda o'tkazilayotgan yirik madaniy, ilmiy va sport tadbirlari muhim o'rin tutadi. Jumladan, an'anaviy "Gullar bayrami", respublika va xalqaro miqyosdagi konferensiyalar hamda sport musobaqalari qisqa muddatli, biroq yuqori intensivlikdagi sayyohlar oqimini shakllantirib, mehmonxona va xizmat ko'rsatish obyektlari bandligini oshirmoqda. Shuningdek, Namangan viloyatining tarixiy va madaniy merosi ham sayyohlar oqimining barqaror o'sishiga xizmat qilmoqda. Axsikent tarixiy yodgorlik majmuasi arxeologik va madaniy turizmni rivojlantirish uchun muhim obyekt bo'lib, mazkur hududda olib borilayotgan obodonlashtirish va infratuzilma ishlari tashrif buyuruvchilar sonining ko'payishiga zamin yaratmoqda. Bundan tashqari, Chodak, Nanay va G'ova kabi tog'li va tabiiy-rekreatsion hududlar, Chortoqdagi balneologik sog'lomlashtirish maskanlari hamda Sulton Uvays ziyoratgohi viloyatda rekreatsion va diniy turizm yo'nalishlarining rivojlanishini ta'minlab, yil davomida uzluksiz sayyohlar oqimini shakllantirmoqda. Umuman olganda, Jadval 2 da aks etgan sayyohlar sonining o'sish dinamikasi Namangan viloyatida madaniy tadbirlar, tarixiy obidalar, tabiiy-rekreatsion va ziyorat turizmi obyektlarining uyg'un



rivojlanishi hamda turizm infratuzilmasini kompleks takomillashtirish natijasida yuzaga kelganini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Namangandagi turizmni rivojlantirish istiqbolini davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan qaror va farmonlar bilan bevosita uyg'unlashadi⁵:

1. Transport infratuzilmasi: avtomobil yo'llarini rekonstruksiya qilish, tog'li hududlarga olib boruvchi yo'llarni yaxshilash, ichki turistik marshrutlarni rivojlantirish.

2. Mehmonxona xo'jaligi: zamonaviy mehmonxonalar bilan bir qatorda oilaviy mehmon uylari va ekologik turizm obyektlarini ko'paytirish.

3. Xizmatlar sohasi: ovqatlanish, gidlik, madaniy-ko'ngilochar va sog'lomlashtirish xizmatlarini diversifikatsiya qilish.

4. Raqamli infratuzilma: onlayn bronlash tizimlari, mobil ilovalar, raqamli xaritalar va axborot platformalarini joriy etish.

5. Kadrlar salohiyati: turizm yo'nalishida malakali mutaxassislar tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

MUHOKAMA VA XULOSA. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Namangan viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish faqat moddiy obyektlarni barpo etish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Samarali rivojlanish uchun institutsional muhitni yaxshilash, investitsiyalarni jalb qilish hamda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur. Turizm sohasidagi rivojlanish nafaqat hududning turistik jozibadorligini oshiradi, balki mahalliy aholi bandligini kuchaytirish va hududiy ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ilmiy asoslangan yondashuv va kompleks strategiya asosida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar turizm salohiyatini maksimal darajada ishga solishga yordam beradi.

TAKLIFLAR

1. Namangan viloyati uchun alohida turizm infratuzilmasini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va unga ilmiy asoslangan indikatorlar kiritish.



2. Transport, mehmonxona va servis xizmatlariga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini kengaytirish, shu jumladan xususiy sektorni rag‘batlantirish.

3. Raqamli turizm platformalarini keng joriy etish, jumladan onlayn rezervatsiya, virtual tur va marketing imkoniyatlarini rivojlantirish.

4. Turizm sohasidagi kadrlar tayyorlash tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, professional malaka oshirish va xorijiy tajriba almashishni yo‘lga qo‘yish.

5. Hududning tabiiy va madaniy meros obyektlarini kompleks tarzda rivojlantirish orqali turizmni diversifikatsiya qilish.

Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, Namangan viloyatining turizm salohiyati sezilarli darajada oshadi va hududning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga katta hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PQ-4095-son qarori «Turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida».

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida».

3. Mirzayev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: O‘zbekiston, 2017. 56 b.

4. Ritchie J.R.B., Crouch G.I. The Competitive Destination: A Sustainable Tourism Perspective. Oxford: Butterworth-Heinemann, 2003. 290 p.

5. Qodirov A.A. O‘zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. Toshkent, 2021. №3. B. 45 52.